Madaniy meros obyektlarini iqtisodiy aylanmaga jalb etishning birinchi sharti – qaysi obyektga birinchi navbatda investitsiya kiritish maqsadga muvofiqligini aniqlashdir. Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga muvofiq [1], Buxoro viloyati hududida 829 ta obyekt qayd etilgan bo'lsa-da, ulardan 144 tasi turistik aylanmaga jalb etilgan, qolgan 685 tasi esa iqtisodiy faollashtirish imkoniyatiga ega obyektlar hisoblanadi. Resurslar cheklangan, obyektlar esa ko'p bo'lib, ular joylashuvi, saqlanish holati, tanilganlik darajasi hamda infratuzilma bilan ta'minlanganligi jihatidan bir-biridan farqlanadi.

Amaldagi amaliyotda bunday tanlov ko'pincha ma'muriy qarorlar yoki obyektning tarixiy ahamiyati asosida amalga oshiriladi. Biroq tarixiy ahamiyat va iqtisodiy salohiyat alohida tushunchalardir: ilmiy jihatdan noyob yodgorlikning turistik jozibadorlik darajasi nisbatan past bo'lishi, aksincha, o'rtacha ahamiyatga ega obyekt qulay joylashuvi tufayli yuqori daromad keltirishi mumkin. Shu sababli obyektlarni yagona, izchil va takrorlanadigan uslubiyot asosida baholash zarurati yuzaga keladi. Maqolaning maqsadi – xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan baholash yondashuvlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ko'p mezonli usullarni qiyoslash va shu asosda obyektlarni investitsiya ustuvorligi bo'yicha tartiblash imkonini beruvchi mualliflik indeksini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Madaniy meros obyektlarining turistik-iqtisodiy salohiyatini baholash muammosi xalqaro adabiyotlarda uchta asosiy yondashuv orqali o'rganilgan. Birinchi guruh – matritsali baholash bo'lib, unda obyektlar ikki o'lcham bo'yicha choraklarga taqsimlanadi. Bucurescu bu usulni Ruminiya tarixiy shaharlariga tatbiq etib, sodda va boshqaruv amaliyotiga oson tatbiq qilinadigan natijaga erishgan hamda bitta chorak ichidagi obyektlarni yanada aniqroq tartiblash imkoniyatlarini ko'rsatgan [1]. Ikkinchi guruh – kompozit indekslar bo'lib, ularda bir nechta ko'rsatkich normallashtirilib, yagona songa keltiriladi. Puerta va Arcila Garrido meros obyektlari uchun turistik salohiyat indeksini ishlab chiqqan [2], Ocampo va boshqalar esa vazn belgilashdagi aniqlikni oshirish maqsadida stoxastik CRITIC-asoslangan indeksni taklif etgan [3]. Shu bilan birga, Yan, Gao va Zhang ta'kidlaganidek, vazn belgilashning ilmiy asoslanganligini ta'minlash ushbu guruh usullarini yanada takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [4].

Uchinchi guruh – ko'p mezonli qaror qabul qilish (MCDM) usullaridir. Nadkarni va Puthuvayi o'tkazgan keng qamrovli sharh MCDM usullarining meros binolari bo'yicha oltita vazifada, jumladan, turizm uchun yaroqlilikni baholashda qo'llanilishini ko'rsatgan [5]. Bu guruh ichida AHP alohida ustunlikka ega: Islam va boshqalar GIS-asoslangan MCDM yondashuvida AHP mezonlarga vazn berishda, TOPSIS esa muqobillarni tartiblashda qo'llanilishini ko'rsatgan [6]. Vaznlarni aniqlash tartibining shaffofligi masalasida Spencer va Sargeant meros sohasidagi indikatorlarning ishonchililigini yanada takomillashtirish imkoniyatlarini tahlil qilgan [7]. Bu xulosa mazkur tadqiqotda aniqlangan holat, ya'ni manbalarning bir qismida vazn belgilash tartibining to'liq ochib berilmaganligi bilan mos keladi.

Mezonlar tarkibi bo'yicha Božić va boshqalar Tailandning Phuket orolidagi olti obyektning oltita mezon asosida baholagan [8], Salehipour va boshqalar esa karvonsaroylar misolida tarmoq bog'lanishi va yo'l qulayligini birinchi darajali mezon sifatida ajratgan [9]. Nesticò va Somma ta'kidlaganidek, mavjud tuzilmalarda iqtisodiy blok mavjud bo'lgan taqdirda ham, u ko'pincha bitta yoki ikkita ko'rsatkich bilan ifodalanadi [10]. Bu esa obyektning daromad hosil qilish qobiliyatini mustaqil o'lcham sifatida yanada kengroq baholash imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning empirik asosini 2015-2026-yillarda nashr etilgan va xalqaro ma'lumotlar bazalarida indekslangan 60 ta manba tashkil etadi; ularga jami 2 151 ta iqtibos keltirilgan. Manbalarning 37 tasi, ya'ni 61,7 foizi, 2020-yildan keyin chop etilgan bo'lib, bu sohaning faol rivojlanayotganini ko'rsatadi. Har bir manba oltita tahliliy maydon bo'yicha kodlashtirildi: qo'llanilgan usul; mezonlar tarkibi; vazn aniqlash tartibi; tatbiq etilgan hudud yoki obyekt; validatsiya usuli; muallif e'tirof etgan cheklovlar. Ishda kontent-tahlil, qiyosiy tahlil, iyerarxiya tahlili usuli va kompozit indeks usuli qo'llanildi (1-jadval).



1-jadval
Tahlil qilingan manbalar bazasining tavsifi (n = 60)¹

Ko'rsatkich	Soni, dona	Ulushi, %
2015-2019-yillarda nashr etilgan	23	38,3
2020-2026-yillarda nashr etilgan	37	61,7
Baholash usuli aniq ko'rsatilgan	54	90,0
Mezonlar tarkibi keltirilgan	53	88,3
Validatsiya tartibi tavsiflangan	53	88,3
Tatbiq hududi yoki obyekti ko'rsatilgan	53	88,3
Vazn aniqlash tartibi ochib berilgan	48	80,0
Usul cheklovlari e'tirof etilgan	40	66,7

TAHLIL VA NATIJALAR

Baholash yondashuvlarining guruhleri. Adabiyotlar tahlili uchta yirik yondashuv guruhini ajratish imkonini berdi. Birinchi guruh — matritsali baholash usullari bo'lib, ularda obyekt madaniy ahamiyati va bozorga jalb qilinganlik darajasi bo'yicha choraklarga joylashtiriladi; ushbu yondashuv Ruminiya tarixiy shaharlariga [2] va Serbiyaning madaniy-tarixiy hududlariga [3] tatbiq etilgan. Ikkinchi guruh — kompozit indekslar bo'lib, ularda bir nechta ko'rsatkich normallashtirilib, yagona songa keltiriladi. Bu yo'nalishda meros obyektlari uchun turistik salohiyat indeksi [4], ekotizim xizmatlari yondashuviga asoslangan indeks [5], hududlarning meros salohiyatini o'lchovchi sintetik indeks [6] va vazn belgilashdagi noaniqlikni kamaytiruvchi stoxastik kompozit indeks [7] ishlab chiqilgan; ayni paytda vazn belgilashning ilmiy asoslanganligini ta'minlash ushbu guruhni yanada takomillashtirishning muhim yo'nalishi sifatida qayd etiladi [8]. Uchinchi guruh — ko'p mezonli qaror qabul qilish usullari bo'lib, meros binolari bo'yicha o'tkazilgan keng qamrovli sharh ularning oltita vazifada, jumladan, obyektning turizm uchun yaroqliligini baholashda qo'llanilishini ko'rsatdi [9]. Guruhlarning qiyosiy tavsifi 2-jadvalda keltirilgan.


2-jadval
Meros obyektlari salohiyatini baholash yondashuvlarining qiyosiy tahlili²

Yondashuv guruhi	Mohiyati	Kuchli tomoni	Cheklovi
Matritsali baholash	Obyekt ikki o'lcham bo'yicha choraklarga taqsimlanadi	Sodda va tushunarli; boshqaruv qaroriga oson tarjima qilinadi	Natija sifat xarakteriga ega; bir chorak ichida tartiblash imkoniyati cheklangan
Kompozit indeks	Ko'rsatkichlar normallashtirilib, yagona songa keltiriladi	Aniq son beradi; obyektlarni bevosita tartiblash mumkin	Vazn belgilash yetarli darajada asoslanmasa, natijaning subyektivlik darajasi oshishi mumkin
Ko'p mezonli qaror qabul qilish	Mezonlar iyerarxiyaga solinib, juftlik qiyoslash orqali vazn beriladi	Vaznlar asoslanadi; izchillik matematik jihatdan tekshiriladi	Ekspertlar guruhini shakllantirish va qo'shimcha hisob-kitoblarni talab qiladi

Usullarning uchrash chastotasi. Har bir manbada qo'llanilgan usullar aniqlanib, ularning uchrash chastotasi hisoblandi (1-rasm). Tahlil qilingan manbalarning 47 tasida, ya'ni 78,3 foizida iyerarxiya tahlili usuli (Analytic Hierarchy Process, AHP) qo'llanilgan. Ikkinchi o'rinda TOPSIS usuli turadi — 11 ta manba yoki 18,3 foiz, biroq uning aksariyati AHP bilan birgalikda ishlatilgan: AHP mezonlarga vazn beradi, TOPSIS esa muqobillarni tartiblaydi [10]. Noaniq mantiq kengaytmalari 10 ta, kompozit indeks esa 9 ta manbada uchraydi; qolgan usullar alohida-alohida olganda 5 foizdan oshmaydi. Geoaxborot tizimi bilan birlashtirilgan AHP alohida yo'nalish sifatida shakllangan [11; 12; 13], noaniq mantiq kengaytmalari esa ekspert bahosidagi ikkilanishni hisobga olish uchun qo'llaniladi (1-rasm)[14].


1 Manba: muallif ishlanmasi.

2 Manba: muallif ishlanmasi.



1-rasm. Meros va turizm salohiyatini baholashda qo'llaniladigan usullarning uchrash chastotasi (60 ta manba tahlili asosida)³

Vazn aniqlash tartibi. Har qanday kompozit indeksning ishonchligi vaznlarning qanday aniqlanganiga bog'liq. Tahlil qilingan manbalarning 33 tasida vaznlar ekspert bahosi asosida, 6 tasida obyektiv statistik usullar yordamida aniqlangan, 12 tasida esa vazn belgilash tartibi to'liq ochib berilmagan (2-rasm). Oxirgi ko'rsatkich alohida e'tiborga loyiq: manbalarning beshdan bir qismida uslubiyotning muhim bo'g'inlaridan biri yetarli darajada yoritilmagan. Bu holat meros sohasidagi indikatorlarning ishonchligi va mazmuniy asosligini yanada chuqurroq tekshirish zarurligi haqidagi ilmiy xulosalar bilan mos keladi (2-rasm) [15].



2-rasm. Kompozit indekslarda vazn aniqlash usullarining taqsimoti⁴

Obyektiv usullar — entropiya va CRITIC — barcha obyektlar bo'yicha to'liq miqdoriy bazani talab qiladi [7]. Buxoro viloyati sharoitida esa obyektlar kesimidagi tashrif va daromad ma'lumotlari muntazam shakllantirilmaganligi sababli obyektiv usullarni asosiy vosita sifatida qo'llash imkoniyati cheklangan. Ekspert usullari orasida iyerarxiya tahlili ikki sababga ko'ra afzal ko'rildi: u eng keng tarqalgan usullardan biri bo'lgani uchun natijalarni xalqaro tadqiqotlar bilan qiyoslash imkonini beradi hamda ekspert bahosining izchilligini matematik tarzda tekshirishga xizmat qiladi. Usulning guruh sharoitida barqaror natija berishi to'qqiz nafar [16], o'n olti nafar [17] va o'n sakkiz nafar [18] ekspert bilan o'tkazilgan tadqiqotlarda tasdiqlangan.

Matematik apparat. Iyerarxiya tahlilida mezonlar Saati shkalasi bo'yicha juftlik asosida qiyoslanadi, so'ngra matritsa normallashtirilib, har bir mezonning vazni qatorlar bo'yicha o'rtacha qiymat sifatida hisoblanadi:

$$w_i = (1/n) \cdot \sum_j [a_{ij} / \sum_k a_{kj}], \quad (1)$$

3 Muallif ishlanmasi

4 Muallif ishlanmasi




bu yerda: w_i — i -mezonning vazni; n — mezonlar soni; a_{ij} — i -mezonning j -mezonga nisbatan qiyosiy bahosi. Ekspert bahosining izchilligi izchillik indeksi va izchillik nisbati orqali tekshiriladi:

$$CI = (\lambda_{max} - n) / (n - 1); \quad CR = CI / RI, \quad (2)$$

bu yerda: λ_{max} — matritsaning eng katta xos qiymati; RI — tasodifiy matritsalar uchun o'rtacha izchillik indeksi. Izchillik nisbati 0,1 dan kichik bo'lsa, baho izchil deb topiladi va vaznlar qabul qilinadi; aks holda qiyoslash qayta o'tkaziladi. Aynan shu tekshiruv mexanizmi iyerarxiya tahlilining oddiy ekspert so'rovidan asosiy farqlaridan biridir [19].

Indeksning tuzilmasi va vaznlar. Mezonlar tarkibini asoslash maqsadida manbalarda qo'llanilgan mezonlar guruhlandi. Eng ko'p uchraydigan mezonlar quyidagilardan iborat bo'ldi: yo'l qulayligi va transport bog'liqligi, saqlanish holati, madaniy va tarixiy qiymat, turistik infratuzilma, boshqa obyektlar bilan bog'lanish hamda tanilganlik darajasi. Xususan, oltita mezondan iborat tuzilma taklif etilgan [19], karvonsaroylar misolida tarmoq bog'lanishi va yo'l qulayligi birinchi darajali mezon sifatida ajratilgan [20], mezonlarni madaniy va iqtisodiy guruhlariga bo'lish tajribasi ham mavjud [21]. Ayni paytda mavjud tuzilmalarda obyektning turistik jozibadorligi keng yoritilgan bo'lsa-da, daromad hosil qilish qobiliyatini mustaqil o'lcham sifatida yanada batafsil baholash imkoniyati mavjud; iqtisodiy blok mavjud bo'lgan hollarda ham u ko'pincha bitta yoki ikkita ko'rsatkich bilan ifodalanadi [22]. Aynan shu metodologik yo'nalish taklif etilayotgan uslubiyotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Ushbu asosda madaniy meros obyektining turistik-iqtisodiy salohiyati indeksi (MMTSI) besh o'lcham va yigirma ko'rsatkichdan iborat iyerarxik tizim sifatida quriladi (3-rasm). Har bir o'lchamga to'rttadan ko'rsatkich to'g'ri keladi; bu simmetriya ekspert qiyoslashini soddalashtiradi va barcha bloklar o'rtasida muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi. Vaznlar mezonlarni blok darajasida oldindan belgilash amaliyotiga mos ravishda taqsimlangan [23] (3-rasm, 3-jadval).



3-rasm. MMTSI indeksining iyerarxik tuzilmasi va o'lcham vaznlari⁵

3-jadval
MMTSI indeksining o'lchamlari, ko'rsatkichlari va vazn koeffitsiyentlari⁶

O'lcham	Ko'rsatkichlar	Vazn
E — Iqtisodiy salohiyat	E1 — yillik chipta va xizmat daromadi; E2 — yillik tashrif oqimi; E3 — xarajatlarning daromadga nisbati (teskari); E4 — qo'shimcha xizmat joriy etish imkoniyati	0,28
J — Joylashuv va yo'l qulayligi	J1 — shahar markazidan masofa (teskari); J2 — qattiq qoplamali yo'lgacha masofa (teskari); J3 — jamoat transporti bilan bog'lanish; J4 — 5 km radiusdagi meros obyektlari soni	0,24
R — Resurs-madaniy salohiyat	R1 — muhofaza maqomi darajasi; R2 — fizik saqlanish holati; R3 — tarixiy davri va noyobligi; R4 — obyekt maydoni va tashrif sig'imi	0,20
I — Infratuzilma va xizmatlar	I1 — tashrif markazi va ma'lumot taxtalari; I2 — bazaviy qulayliklar; I3 — 1 km radiusda ovqatlanish va savdo nuqtalari; I4 — 5 km radiusda joylashtirish o'rinlari	0,17
B — Boshqaruv va institutsional tayyorlik	B1 — boshqaruvchi tashkilot salohiyati; B2 — boshqaruv rejasining mavjudligi; B3 — raqamli taqdimot darajasi; B4 — xususiy sektor yoki jamoa ishtiroki	0,11

⁵ Muallif ishlanmasi

⁶ Manba: muallif ishlanmasi. O'lcham ichidagi har bir ko'rsatkichning vazni 0,25 ga teng.



Hisoblash tartibi. Ko'rsatkichlar turli o'lchov birliklarida ifodalangani sababli ular minimal-maksimal usuli yordamida 0-1 oralig'iga keltiriladi: to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi ko'rsatkichlar uchun $x' = (x - x_{\min}) / (x_{\max} - x_{\min})$, teskari ta'sir ko'rsatuvchi ko'rsatkichlar (masofa, xarajat nisbati) uchun esa $x' = (x_{\max} - x) / (x_{\max} - x_{\min})$. Normallashtirishdan so'ng integral indeks o'lchamlar bo'yicha oraliq indeksning vaznli yig'indisi sifatida hisoblanadi:

$$MMTSI = \sum_k W_k \cdot (\sum_l w_{kl} \cdot x'_{kl}), \quad k = 1 \dots 5; \quad l = 1 \dots 4, \quad (3)$$

bu yerda: W_k — k -o'lchamning vazni; w_{kl} — o'lcham ichidagi l -ko'rsatkichning vazni; x'_{kl} — tegishli ko'rsatkichning normallashtirilgan qiymati. Vaznlar yig'indisi birga teng bo'lgani va barcha ko'rsatkichlar 0-1 oralig'ida normallashtirilgani sababli integral indeks ham 0 dan 1 gacha qiymat oladi.

Natijani boshqaruv qaroriga bog'lash. Indeks qiymati besh darajali shkala bo'yicha talqin qilinadi va har bir darajaga obyektning hayot sikli bosqichi hamda tavsiya etiladigan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm biriktiriladi (4-jadval).

4-jadval
MMTSI indeksining baholash shkalasi va tavsiya etiladigan mexanizmlar⁷

Indeks qiymati	Salohiyat darajasi	Hayot sikli bosqichi	Tavsiya etiladigan mexanizm
0,80-1,00	Juda yuqori	O'sish yoki to'yinish	Konsessiya yoki boshqaruv kompaniyasi; dinamik narx; sig'im nazorati
0,60-0,79	Yuqori	O'sish	Davlat-xususiy sheriklik; qo'shimcha xizmat va kechki mahsulot joriy etish
0,40-0,59	O'rtacha	Aktivlashtirish	Marshrutga kiritish; infratuzilma investitsiyasi; kompleks chipta
0,20-0,39	Past	Nofaol	Bazaviy infratuzilma va konservatsiya; imtiyozli ijara asosida investor jalb etish
0,00-0,19	Juda past	Nofaol	Muhofaza va ilmiy pasportlashtirishga ustuvor ahamiyat berish; tijoratlashtirish imkoniyatini keyingi bosqichlarda baholash

Taklif etilayotgan uslubiyot mavjud yondashuvlardan uch jihatda farq qiladi. Birinchidan, iqtisodiy salohiyat mustaqil va eng yuqori vaznli o'lcham maqomiga ega. Xalqaro amaliyotda iqtisodiy ko'rsatkichlar odatda yordamchi mezon sifatida qaraladi yoki alohida blok sifatida kiritilmaydi [5; 22], holbuki investitsiya ustuvorligini belgilash daromad hosil qilish qobiliyatini ham hisobga olishni talab etadi. Ikkinchidan, vazn aniqlash tartibi to'liq shaffof bo'lib, izchillik nisbati orqali tekshiriladi; tahlil natijalariga ko'ra, manbalarning 20,0 foizida ushbu bosqich to'liq ochib berilmagan. Uchinchidan, indeksning har bir darajasiga aniq mexanizm biriktirilgani natijani bevosita boshqaruv qaroriga aylantirish imkonini beradi: past darajadagi obyektlar uchun, avvalo, bazaviy infratuzilmani rivojlantirish va ularning investitsion tayyorligini oshirish maqsadga muvofiq.

Uslubiyotning ayrim metodologik xususiyatlarini ham e'tiborga olish lozim. Ekspert bahosiga tayanish ma'lum darajada subyektivlikni saqlab qolishi mumkin; uni kamaytirishning samarali yo'li ekspertlar guruhini kengaytirish, izchillik nisbatini qat'iy nazorat qilish hamda mezonlarni Delfi so'rovi va mazmuniy asoslilik koeffitsiyenti orqali saralashdan iborat [24; 25]. Mezonlar soni ortishi bilan juftlik qiyoslashlar soni ham sezilarli darajada ko'payadi, bu esa qiyoslash sifatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin; shu bois o'lchamlar soni beshta bilan cheklandi. Miqdoriy baza to'plangach, vaznlarni entropiya yoki CRITIC usullari bilan qayta hisoblab, ekspert vaznlari bilan qiyoslash maqsadga muvofiq [10; 26]. Nihoyat, indeks obyektning salohiyatini o'lchaydi, sig'im chegarasini aniqlash esa alohida tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi [20]. Uslubiyotni raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun obyekt tanlashda ham qo'llash mumkin [27].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Birinchidan, 60 ta xorijiy manbaning tahlili shuni ko'rsatdiki, meros va turizm salohiyatini baholashda iyerarxiya tahlili usuli yetakchi o'rinni egallaydi (78,3 foiz), vaznlar esa asosan ekspert bahosi asosida aniqlanadi (55,0 foiz). Shu bilan birga, manbalarning 20,0 foizida vazn belgilash tartibi to'liq ochib berilmagan bo'lib, bu natijalarning takrorlanuvchanligini yanada oshirish zarurligini ko'rsatadi.

7 Manba: muallif ishlanmasi.



Ikkinchidan, mavjud uslubiyotlarda obyektning daromad hosil qilish qobiliyatini mustaqil o'lcham sifatida baholashni yanada kuchaytirish imkoniyati mavjud. Shu metodologik yo'nalishni rivojlantirish maqsadida besh o'lcham va yigirma ko'rsatkichdan iborat MMTSI indeksi ishlab chiqildi; unda iqtisodiy salohiyat 0,28 vazn bilan birinchi o'rinni egallaydi, joylashuv va yo'l qulayligi 0,24, resurs-madaniy salohiyat 0,20, infratuzilma 0,17, boshqaruv tayyorligi esa 0,11 vaznga ega.

Uchinchidan, uslubiyotning amaliy qiymati natijaning boshqaruv qaroriga bevosita bog'lanishida namoyon bo'ladi: indeks qiymati besh darajali shkala orqali muayyan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmga — konsessiyadan tortib bazaviy konservatsiyagacha — tarjima qilinadi. Bu obyektlarni investitsiya ustuvorligi bo'yicha tartiblash va cheklangan resurslarni yuqori qaytim berish salohiyatiga ega obyektlarga yo'naltirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 846-son qarori. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-4543266>.
2. Bucurescu, I. Managing tourism and cultural heritage in historic towns: examples from Romania / I. Bucurescu // *Journal of Heritage Tourism*. — 2015. — Vol. 10, No. 3. — P. 248–262. — DOI: 10.1080/1743873X.2014.968162.
3. Vukočić, D. Assessing the tourist potential of cultural-historical spatial units of Serbia using comparative application of AHP and mathematical method / D. Vukočić, D. Petrović, D. Gatarić, S. Božović, D. Ristić, M. R. Jeftić // *Open Geosciences*. — 2022. — Vol. 14, No. 1. — DOI: 10.1515/geo-2022-0411.
4. Puerta, C. D. M. Methodological Proposal for the Elaboration of a Tourist Potential Index Applied to Historical Heritage / C. D. M. Puerta, M. Arcila Garrido // *International Journal of Sustainable Development and Planning*. — 2020. — Vol. 15, No. 3. — DOI: 10.18280/ijstdp.150305.
5. Ramírez-Guerrero, G. A Tourism Potential Index for Cultural Heritage Management through the Ecosystem Services Approach / G. Ramírez-Guerrero, J. García-Onetti, M. Arcila-Garrido, J. A. Chica-Ruiz // *Sustainability*. — 2021. — Vol. 13, No. 11. — Art. 6415. — DOI: 10.3390/su13116415.
6. Król, K. Assessment of the Cultural Heritage Potential in Poland / K. Król // *Sustainability*. — 2021. — Vol. 13, No. 12. — Art. 6637. — DOI: 10.3390/su13126637.
7. Ocampo, L. Composite ecotourism potential index based on an integrated stochastic CRITIC-weighted sum method / L. Ocampo, J. L. Aro, S. S. Evangelista, F. Maturan, L. F. Casinillo, K. D. Yamagishi, E. F. Selerio // *Current Issues in Tourism*. — 2022. — DOI: 10.1080/13683500.2022.2090906.
8. Yan, L. A mathematical model for tourism potential assessment / L. Yan, B. Gao, M. Zhang // *Tourism Management*. — 2017. — Vol. 63. — P. 355–365. — DOI: 10.1016/j.tourman.2017.07.003.
9. Nadkarni, R. R. A comprehensive literature review of Multi-Criteria Decision Making methods in heritage buildings / R. R. Nadkarni, B. Puthuvayi // *Journal of Building Engineering*. — 2020. — Vol. 32. — Art. 101814. — DOI: 10.1016/j.jobbe.2020.101814.
10. Islam, N. A novel GIS-based MCDM approach to identify the potential eco-tourism sites in the Eastern Dooars region of West Bengal, India / N. Islam, B. Sarkar, A. Basak, P. Das, I. Paul, M. Debnath, R. Roy // *Geocarto International*. — 2022. — DOI: 10.1080/10106049.2022.2076917.
11. Hoang, H. Multicriteria Evaluation of Tourism Potential in the Central Highlands of Vietnam: Combining GIS, AHP and PCA / H. Hoang, Q. Truong, A. Nguyen, L. Hens // *Sustainability*. — 2018. — Vol. 10, No. 9. — Art. 3097. — DOI: 10.3390/su10093097.
12. Mansour, S. Geospatial based multi-criteria analysis for ecotourism land suitability using GIS & AHP: a case study of Masirah Island, Oman / S. Mansour, T. Al-Awhadi, S. Al-Hatrushi // *Journal of Ecotourism*. — 2020. — Vol. 19, No. 2. — DOI: 10.1080/14724049.2019.1663202.
13. Navale, S. Detection and Delineation of Potential Areas for Tourism Activities in Coastal Zone of Ratnagiri District, Maharashtra (India) / S. Navale, V. Bhagat // *Journal of Geographical Studies*. — 2021. — Vol. 5, No. 2. — DOI: 10.21523/gcj5.21050203.
14. Dargahov, V. Assessment of the potential of eco-cultural heritage in the development of sustainable tourism in Azerbaijan / V. Dargahov, A. Nuriyev, R. Ahmadov, F. Murshudova, E. Mustafayev // *GeoJournal of Tourism and Geosites*. — 2026. — DOI: 10.30892/gtg.67308-1820.
15. Spencer, D. M. The use of indicators to measure the sustainability of tourism at cultural heritage sites: a critical review / D. M. Spencer, E. Sargeant // *Tourism Recreation Research*. — 2022. — DOI: 10.1080/02508281.2022.2069454.
16. D'Alpaos, C. Protection of Cultural Heritage Buildings and Artistic Assets from Seismic Hazard: A Hierarchical Approach / C. D'Alpaos, M. R. Valluzzi // *Sustainability*. — 2020. — Vol. 12, No. 4. — Art. 1608. — DOI: 10.3390/su12041608.



17. Valagussa, A. Hazard ranking of the UNESCO world heritage sites (WHs) in Europe by multicriteria analysis / A. Valagussa, P. Frattini, G. Crosta, D. Spizzichino, G. Leoni, C. Margottini // *Journal of Cultural Heritage Management and Sustainable Development*. – 2020. – DOI: 10.1108/JCHMSD-03-2019-0023.
18. González-Ramiro, A. Using a VGI and GIS-Based Multicriteria Approach for Assessing the Potential of Rural Tourism in Extremadura (Spain) / A. González-Ramiro, G. Gonçalves, A. Sánchez-Rios, J. S. Jeong // *Sustainability*. – 2016. – Vol. 8, No. 11. – Art. 1144. – DOI: 10.3390/su8111144.
19. Božić, S. Sun, Sea and Shrines: Application of analytic hierarchy process (AHP) to assess the attractiveness of six cultural heritage sites in Phuket (Thailand) / S. Božić, M. D. Vujičić, J. Kennell, S. Besermenji, M. Solarević // *Geographica Pannonica*. – 2018. – Vol. 22, No. 2. – DOI: 10.5937/22-16983.
20. Salehipour, M. Developing a Multi-Criteria Decision Model to Unlock Sustainable Heritage Tourism Potential / M. Salehipour, N. Kazemi, J. Jokar Arsanjani, M. Karimi Firozjaei // *Sustainability*. – 2025. – Vol. 17, No. 8. – Art. 3703. – DOI: 10.3390/su17083703.
21. Oktay Vehbi, B. Multi-Criteria Assessment for Defining Compatible New Use: Old Administrative Hospital, Kyrenia, Cyprus / B. Oktay Vehbi, K. Günçe, A. Peter // *Sustainability*. – 2021. – Vol. 13, No. 4. – Art. 1922. – DOI: 10.3390/su13041922.
22. Nesticò, A. Comparative Analysis of Multi-Criteria Methods for the Enhancement of Historical Buildings / A. Nesticò, P. Somma // *Sustainability*. – 2019. – Vol. 11, No. 17. – Art. 4526. – DOI: 10.3390/su11174526.
23. Chams-Anturi, O. Methodology for the Identification and Evaluation of the Tourism Potential of the Natural and Cultural Heritage Inventory / O. Chams-Anturi, E. Paipa-Sanabria va boshq. // *Sustainability*. – 2025. – Vol. 17, No. 24. – Art. 11311. – DOI: 10.3390/su172411311.
24. Kabassi, K. AHP, Fuzzy SAW, and Fuzzy WPM for the Evaluation of Cultural Websites / K. Kabassi, C. Karydis, A. Botonis // *Multimodal Technologies and Interaction*. – 2020. – Vol. 4, No. 1. – Art. 5. – DOI: 10.3390/mti4010005.
25. Jeelani, P. Sustainability in tourism demands a mode shift: Appraisal of heritage tourism; a safe bet for developing regions / P. Jeelani, H. Rashid, S. A. Shah, F. Ahad, S. Gulzar // *Natural Resources Forum*. – 2024. – Vol. 48, No. 2. – DOI: 10.1111/1477-8947.12409.
26. Deribew, K. T. Spatial analysis of potential ecological sites in the northeastern parts of Ethiopia using multi-criteria decision-making models / K. T. Deribew, Y. Mihretu, G. Abreha, D. O. Gemedo // *Asia-Pacific Journal of Regional Science*. – 2022. – Vol. 6. – DOI: 10.1007/s41685-022-00248-5.
27. Manglis, A. Implementing Multi-Criteria Analysis in the Selection of Underwater Cultural Heritage Sites for the Integration of Digital Technologies into the Tourism Offering / A. Manglis, P. Giatsiatsou, D. Papadopoulou, V. Drouga, A. Fourkiotou // *Heritage*. – 2021. – Vol. 4, No. 4. – DOI: 10.3390/heritage4040246.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>